



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

**BUYRUQ**

2024-yil "14" 11

144 - son

Toshkent shahri

**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining korrupsiyaga  
qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy  
hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi va Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining (*keyingi o'rinnarda - Kon-geologiya vazirligi*) manzili hamda aloqa kanallari o'zgarganligi munosabati bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlarini tartibga solish va qayta tasdiqlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar:

- Kon-geologiya vazirligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash hamda korrupsiyani oldini olish va chek qo'yish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilashni amalga oshiruvchi Ishchi komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 2-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining Odob-axloq kodeksi 4-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining Odob-axloq komissiyasi tarkibi 5-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomalarini 7-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalarini 8-ilovaga muvofiq;

- Kon-geologiya vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomalar 9-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligida tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati 10-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma 11-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 12-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 13-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xattiharakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 14-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 15-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 16-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining sovg'alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha siyosati 17-ilovaga muvofiq;
- Kon-geologiya vazirligining xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish siyosati 18-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kon-geologiya vazirligining 2023-yil 12-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid chora-tadbirlar va ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida" 27-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi (Sag'dullayev) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Karimjonov) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirish, devonxona mudiri (Xusainov) ushbu buyruq Kon-geologiya vazirligining tizim tashkilotlariga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

B. Islamov

**Kiritildi:**

Korrupsiyaga qarshi ichki  
nazorat bo‘limi boshlig‘i

Sh. Sag‘dullayev

**Kelishildi:**

Vazirning birinchi o‘rinbosari

O. Nasritdinodjayev

Vazir o‘rinbosari

A. Kadirxodjayev

Vazir o‘rinbosari

U . Yusupov

Vazir maslahatchisi

M. Pirojkov

Vazir maslahatchisi

Z. Axmedova

Vazir kotibiyati boshlig‘i

Z. Saidov

Geologiya sohasini rivojlantirish  
departamenti boshlig‘i

A. Rustamov

Geologiyani moliyalashtirish va texnik  
siyosat boshqarmasi boshlig‘i

Yu. Xodjamov

Strategik rivojlantirish va yirik investitsiyalar  
boshqarmasi boshlig‘i

M. Bolibekov

Qora, noyob metallar sohasini rivojlantirish  
va mahalliylashtirish boshqarmasi boshlig‘i

I. Jumayev

Energetika xomashyosini rivojlantirish  
boshqarmasi boshlig‘i

R. Yusupov

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish  
bo‘limi boshlig‘i

Z. Karimjonov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

A. Nurkuziyev